

## USKUNANI (DASTGOHNI) YANGI LIZINGGA BERISH SHARTNOMASI №\_\_

\_\_\_\_\_shahar

“\_\_” \_\_\_\_\_202\_y

Chet el kapitali ishtirokidagi “Hamkorbank” ATB (keyingi o‘rinlarda — “Lizing beruvchi” deb nomlanadi) nomidan “\_\_” \_\_\_\_\_ 20\_\_ yildagi №\_\_\_\_\_-sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bankning \_\_\_\_\_ filiali boshqaruvchisi/BXO boshlig‘i \_\_\_\_\_ bir tarafdin va “\_\_\_\_\_” mas’uliyati cheklangan jamiyati, quyida “Lizingga oluvchi” deb nomlanuvchi, ustav asosida harakatlanuvchi direktor ..... ikkinchi tomondan birgalikda “Tomonlar” deb nomlanuvchilar, ushbu uskunaning Lizing shartnomasini (quyida “Shartnoma” deb nomlanuvchi) quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

### QUYIDAGILARNI E‘TIBORGA OLGAN HOLDA

1. Lizing beruvchi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan faoliyat yurituvchi tashkilot bo‘lib, shuningdek, Lizing beruvchi Lizing obyektining ishlab chiqaruvchisi, yetkazib beruvchisi yoki operatori emasdir.
2. Lizing oluvchi buyurtma bilan Lizing obyektini lizing shartnomasi asosida berishni so‘rab Lizing beruvchiga murojaat qiladi.
3. Lizing beruvchi Lizing oluvchining buyurtmasi va unga ilova qilingan hujjatlarini ko‘rib chiqqandan keyin maqullaydi.
4. Lizing beruvchi Lizing obyektini Lizing oluvchiga Moliyaviy lizing shartnomasi asosida berishga tayyor.
5. Lizing oluvchi unga Lizing beruvchi tomonidan lizing shartnomasi asosida unga berilayotgan Lizing obyektini qabul qiladi hamda yuqorida ko‘rsatilgan kelishuvlar ushbu Shartnoma asosida amalga oshirilishi lozim.

### 1-bob. Atamalar va tushunchalarning ta’rifi

Ushbu shartnomada, agar matn kontekstida boshqasi bildirilmayotgan bo‘lsa, quyidagi so‘zlar va ifodalar quyidagi ma’nolarga ega bo‘ladi:

**Shartnoma** - Ushbu Shartnoma, shu jumladan uning hamma ilovalari va qo‘shimchalari;

**Berish sanasi** - Lizing obyektini Lizing oluvchiga foydalanishga berish sanasi;

**Imzolangan sana** — Mazkur Shartnomaning birinchi beti (sahifasi) boshida ko‘rsatilgan sana;**Oldi-berdi dalolatnomasi** – Lizing beruvchi va Lizing oluvchi o‘rtasida, yoki Lizing beruvchi, Lizing oluvchi va Sotuvchi o‘rtasida ushbu Shartnomaning 3-Ilovada keltirilgan shakl asosida imzolangan hujjat bo‘lib, Lizing obyektini Lizing beruvchi tomonidan berilib, Lizing oluvchi tomonidan to‘liq ushbu Shartnomaning 1-Ilovasida keltirilgan spesifikasiya asosida qabul qilinganini tasdiqlaydi;

**Kuchga kirish sanasi** - Imzolangan sanani va ushbu Shartnomaning kuchga kirish sanasini va Tomonlar uchun majburiy bo‘lishini bildiradi;

**Asosiy to‘lov** - ushbu Shartnomaning 2-Ilovasida ko‘zda tutilgan tegishli to‘lovlar jadvali asosida to‘lanishi kerak bo‘lgan to‘lov miqdori;

**Vaqtinchalik egalik qilish va foydalanish huquqi** - Lizing obyektini Lizing oluvchi tomonidan uning hududida vaqtincha saqlash (joylashtirish), mulkni ishlatish va buning natijasida mahsulot ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish huquqidir;

**Moliyaviy lizing muddatining tugash sanasi** - Lizing obyektini berish Sanasidan hisoblashi boshlangan Moliyaviy lizing muddatining oxirgi oyining oxirgi kuni;

**Lizing obyekt** - Ushbu Shartnomaning 1-Ilovasida keltirilgan Lizing obyektining Spetsifikatsiyasida ko'rsatilgan mulk va uning barcha ehtiyot qismlari, komponentlari, yaxshilashlari, almashinuvchi qismlari, aksessuarlari va hujjatlari;

**Lizing to'lovi** - Ushbu Shartnomaning 15-bandiga asosan Lizing oluvchi tomonidan Lizing beruvchiga to'lanishi kerak bo'lgan pul miqdori;

**Moliyaviy lizing muddati** - Ushbu shartnomaning 5.2 bandida ko'rsatilgan vaqt oralig'i;

**Ishlab chiqaruvchi** - Oldi-sotdi Shartnomasida ko'rsatilgan Lizing obyektining ishlab chiqaruvchisi;

**Material xarakterdagi o'zgarishlar** - Lizing oluvchining tijoriy faoliyatiga, uning asosiy vositalariga yoki moliyaviy ahvoliga, yoki ushbu Shartnoma bo'yicha uning Lizing to'lovlarini amalga oshirishiga moddiy salbiy ta'sir ko'rsatuvchi barcha o'zgarishlar va tadbirlar;

**Joriy xizmat ko'rsatish** - Lizing obyektidan odatiy holatda foydalanish, unga texnik xizmat ko'rsatish uchun kerak bo'lgan barcha turdagi joriy ta'mirlash, almashtirish va ta'minlash ishlari;

**To'lanmay qolgan Lizing to'lovlari** - Umumiy Lizing to'lovlarining miqdori va Lizing oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma asosida oldin to'lab bo'lingan barcha Lizing to'lovlari miqdorining farqi;

**Qisman yo'qotish** - Barchayo'qotishlar, Lizing obyektining to'liq yo'qotilishiga olib kelmaydigan qisman shikastlanishi yoki unga yoki uning qismlariga yetkazilgan shikastlanish;

**To'lovlar jadvali** - Lizing obyektiga egalik qilish va ishlatish uchun to'lov muddatlari, miqdori va shartlari inobatga olingan hujjat. To'lovlar jadvali ushbu Shartnomaning 2-Ilovasida keltirilgan;

**Lizing to'lovlarini to'lash sanasi** - To'lovlar jadvaliga asosan Lizing oluvchi tomonidan Lizing beruvchiga Lizing to'lovlari to'lanilishi kerak bo'lgan kun. Agar bu kun O'zbekiston Respublikasidagi dam olish kuniga to'g'ri kelsa, undan bir kun keyingi kun;

**Oldi-sotdi shartnomasi** - Sotuvchi va Lizing beruvchi o'rtasida tuzilgan Lizing obyektini Oldi-sotdi Shartnomasi;

**Sotuvchi** - Ushbu Shartnoma bo'yicha Lizing obyektini Lizing beruvchiga sotadigan yuridik shaxs;

**Garov va Garov shartnomasi** - Ushbu Shartnomaning 4-bandida ko'zda tutilgan Lizing oluvchining o'z majburiyatlarini bajarishining garovi;

**To'liq yo'qotish** - Lizing obyektining to'liq yo'qotilishi va shikastlanishi (yoki uning muhim qismlarini), yoki har qanday hodisa yoki hodisa oqibatida Lizing obyektini (yoki uning muhim qismlarini) tijoriy-xo'jalik maqsadlarida ishlatishga yaroqsiz bo'lishi, yoki ta'mirlash (tuzatish, qayta tiklash) oqibatida uni ishlatish iqtisodiy nomuvofiq bo'lsa;

**Lizing haqqi(daromadi)-** Lizing beruvchi va lizing oluvchi o'rtasida kelishilgan \_\_\_\_ foiz stavkasi bo'yicha hisoblangan daromad;

**Penya** – Qarzdor majburiyatlarning bajarilishini kechiktirib yuborganida to'laydigan va o'tkazib yuborilgan muddatning har bir kuni uchun majburiyatning bajarilmagan qismiga nisbatan foiz bilan hisoblanadigan neustoyka. Penyalar lizing beruvchi tomonidan ehson hayriya ishlariga sarf qilinadi.

**Texnik reglamentga rioya etmaslik** - Lizing obyektni ishlab chiqaruvchining zavod yo'riqnomasi talablariga zid ravishda, belgilangan texnik quvvat yoki yuk me'yorida ortiqcha ishlatish, shuningdek, motor va transmissiya moylarini, texnik suyuqliklarni hamda filtrlarni o'z vaqtida almashtirmaslik.

**O'zboshimchalik bilan o'zgartirish (modifikatsiya qilish)** – Lizing beruvchi va ishlab chiqaruvchining yozma roziligisiz texnikaga qo'shimcha qurilmalar o'rnatish yoki ob'jektning tuzilishini o'zgartirish (modifikatsiya);

**Isitish va sovitish qoidalariga amal qilmaslik** – ishni boshlashdan oldin dvigatelni yetarlicha isitmaslik yoki o'ta qizib ketgan (peregreiv) tizimni sovitmasdan ishlatishda davom etish.

## **2-bob. Shartnomaning predmeti**

2.1 Ushbu shartnoma yuzasidan lizing obyektining summasi \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) *pul birligi*, lizing xaqqi (daromad) \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) *pul birligi*, tashkil qiladi. Umumiy lizing to'lovi miqdori \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_) *pul birligi* bo'lib, 2-ilova asosida to'lab boradi.

2.2 Lizing beruvchi ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan shartlar asosida Lizing obyektni Lizing oluvchiga Moliyaviy lizingga berishni zimmasiga oladi, Lizing oluvchi esa lizing obyektni lizingga olishni va Lizing to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirishni xamda ushbu Shartnoma bo'yicha boshqa barcha majburiyatlarini bajarishni o'z zimmasiga oladi. 2.3. Lizing oluvchining buyurtmasiga (tayinloviga) binoan ushbu Shartnoma bo'yicha Lizing obyekti bu: .....  
(*Lizing obyekti nomi,..... tomonidan ishlab chiqarilgan, Lizing obyekti bajaradigan ish*)

Lizing obyektining batafsil tavsifi ushbu Shartnomaning ajralmas qismi 1- Ilovada ko'rsatilgan

2.4. Ushbu Shartnomaning 1- Ilovasida ko'rsatilgan Lizing obyekti Lizing beruvchi tomonidan quyidagi Sotuvchidan xarid qilindi va qabul qilib olindi:

- .....  
.....

## **4-bob. GAROV**

4.1. Lizing oluvchining ushbu Shartnoma doirasida o'zining barcha majburiyatlarini to'liq va muvofiq bajarishini Garovi sifatida Lizing oluvchi Lizing beruvchiga quyidagilarni taqdim qiladi:

- Garov mulkining nomi - .....
- Garov mulkining qiymati - .....

Garov obyekti Lizing beruvchi va Sotuvchi o'rtasida tuziladigan Lizing obyektni Oldi-sotdi Shartnomasidan oldin Lizing beruvchiga Garovga alohida o'rnatilgan shaklda tuziladigan Garov Shartnomasi asosida beriladi. Shu bilan birga, bu bilan bog'liq barcha xarajatlar Lizing oluvchi tomonidan qoplanadi.

4.2. Yuqorida ko'rsatilgan Garovning amal qilish muddati ushbu Shartnomaning amal qilish muddati bilan birga faqatgina Lizing oluvchi tomonidan barcha majburiyatlari to'liq va mos ravishda bajarilib bo'lgandan keyin tugatiladi.

4.3. Agar Lizing oluvchi Garovni o'rnatilgan muddatda rasmiylashtirib bermasa, Lizing beruvchi ushbu Shartnomani ijro etishdan Lizing oluvchiga tegishli yozma bildirishnoma

yuborgan holda bir tomonlama voz kechishi mumkin. Bu holda ushbu Shartnomaga O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 382-moddasi to'rtinchi qismida nazarda tutilgan oqibatlar qo'llaniladi. Bunday holda Lizing beruvchining ushbu Shartnomani ijro etishdan bir tomonlama voz kechishi Lizing oluvchini ushbu Shartnomaning 4.1-bandiga asosan o'z majburiyatlarini bajarmaganligidan (vaqtida bajarmaganligi) kelib chiqqan Lizing beruvchini xarajatlarni qoplab berishdan ozod etmaydi.

4.4. Ushbu Shartnoma tuzilgan sanadan boshlab 30 kalendar kun ichida Tomonlar ushbu 4-bandni ijro etish maqsadida alohida Garov Shartnomasini tuzishlari kerak. Garov Shartnomasini tasdiqlatish bo'yicha barcha xarajatlarni Lizing oluvchi zimmasiga oladi.

## **5-bob. SHARTNOMA MUDDATI VA LIZING MUDDATI**

5.1. Ushbu Shartnoma imzolangan kundan boshlab kuchga kiradi va Tomonlar to'liq o'z majburiyatlarni bajarib bo'lgunlariga qadar amalda bo'ladi, faqatgina Shartnoma shartlariga asosan oldinroq bekor qilingan holatlar bundan mustasno. Keltirilgan zararni qoplash bilan bog'liq bo'lgan majburiyatlar Shartnoma bekor qilinganidan keyin ham amal qiladi.

5.2. Lizing muddati Oldi-berdi dalolatnomasi tasdiqlangan sanadan boshlab \_\_\_\_ oy ya'ni 20 \_\_\_\_ yil \_\_\_\_ kuniga qadar muddatga tuzilib, Lizing muddati tugagunga qadar .....(pul birilishi) ni tashkil qiladi.

5.3. Lizing obyekti Lizing oluvchiga Lizing muddati davomida vaqtinchalik egalik qilish va foydalanishga topshiriladi, faqatgina ushbu Shartnoma oldinroq bekor qilinmagan bo'lsa.

## **6-bob. LIZING OBYEKTINI LIZING OLUVCHIGA FOYDALANISHGA TOPSHIRISH**

6.1. Ushbu bilan Lizing oluvchi Lizing beruvchining Sotuvchiga Lizing obyekti yetkazib berish (yetkazib berish muddatlari, soni, sifati, kamchiliklari va zararlari) shartlariga tegishli bo'lgan va Lizing obyektiga kafillik majburiyatlari bo'yicha huquqlaridan vakil sifatida foydalanish huquqlariga egadir.

Lizing obyektining sifati va to'liqligi bilan bog'liq bo'lgan barcha holatlar bo'yicha Lizing oluvchining oldida Lizing beruvchi javobgar bo'ladi. O'zaro kelishuv asosida Lizing oluvchi Lizing beruvchining vakili sifatida Lizing obyekti sifati va to'liqligi bilan bog'liq bo'lgan da'volarni Sotuvchiga taqdim etishi mumkin.

6.2. Lizing obyekti Lizing beruvchi tomonidan beriladi va Lizing oluvchi tomonidan Oldi-berdi dalolatnomasi asosida qabul qilib olinadi, biroq, bu, albatta Lizing oluvchi tomonidan unga ushbu Shartnomaga asosan tayinlangan va Lizing obyekti berilishidan oldin bajarilishi kerak bo'lgan barcha talablar va majburiyatlar bajarilib bo'lingandan keyin amalga oshiriladi.

6.3. Lizing oluvchi faqat o'zining loqaydligi yoki foydalanish qoidalarini buzishi natijasida yetgan haqiqiy zararlarni to'laydi va foydalanish jarayonida yemirilishi sababli almashuvchi qismlarni o'z hisobidan almashtiradi. Lizing obyektining odatiy ishlatish natijasida yemirilishiga Lizing oluvchi javobgar bo'lmaydi.

6.4. Oldi-berdi dalolatnomasi imzolangandan so'ng 30 kundan ortiq bo'lmagan vaqt mobaynida Lizing oluvchi Lizing obyekti o'z kuchi va mablag'lari yordamida ishga tushirishi kerak, lekin Oldi-sotdi Shartnomasiga muvofiq Lizing obyekti o'rnatish va ishga tushirish majburiyati Sotuvchiga tegishli bo'lgan holatlar bundan mustasno.

6.5. Lizing beruvchi Lizing obyekti o'z hisobidan, bu mulk Lizing obyekti ekanligi ko'rsatilgan holda, vakolatli Davlat organida amaldagi qonunchilikka asosan ro'yxatga qo'yadi.

## **7-bob. LIZING OBYEKTIGA MULK HUQUQI**

7.1. Butun Lizing muddati davomida Lizing obyektiga bo'lgan mulk huquqi Lizing beruvchi nomida bo'ladi. Lizing beruvchi mulkdor sifatida Lizing obyektidan Lizing oluvchini huquqlarini buzmaganda lizing oluvchining roziligi bilan iqtisodiy maqsadda jumladan garov sifatida

foydalanishi mumkin. Butun Lizing muddati davomida Lizing oluvchi Lizing obyektiga vaqtinchalik egalik va foydalanish huquqlariga ega.

7.2. Lizing oluvchi Lizing obyektining shikastlanishiga, yo'qolishiga yoki yo'q qilinishiga yo'l qo'ymaslik uchun barcha zarur choralarni ko'rishi kerak, va Lizing oluvchi ushbu Shartnoma va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmasligi oqibatida, Lizing beruvchi tomonidan ko'rilgan har qanday haqiqiy zararni qoplash uchun javobgardir.

7.3. Lizing oluvchi ushbu Shartnomaning amal qilish muddati davomida Lizing obyektini har qanday turdagi ziyon, hibsga olish, olib qo'yish, intizomiy harakat yoki boshqa har qanday sud jarayonlarida Lizing beruvchi bilan kelishgan holda harakat qilishi, bunaqa holatlar yuzaga kelganda darhol Lizing beruvchini yozma ravishda xabardor qilishi kerak. Lizing oluvchi Lizing beruvchiga kerak bo'lganda Lizing obyektini ko'zdan kechirishi va ro'yhatdan o'tkazishi uchun zarur tadbirlarni o'tkazishiga yordam beradi.

## **8-bob. LIZING OBYEKTINING JOYLASHUVI VA ISHLATILISHI**

8.1. Ushbu Shartnomani amal qilish muddati davomida Lizing obyektini Lizing oluvchining quyidagi manzili bo'yicha saqlanadi va ishlatiladi: .....  
Lizing obyektining joylashish manzili Lizing oluvchining ishi/xizmatlari hajmi oshishi oqibatida o'zgartirilishi mumkin, faqat Lizing beruvchini oldindan yozma ravishda habardor qilish va roziligini olish sharti bilan.

8.2. Lizing obyektini Lizing oluvchi tomonidan faqat uning arizasida ko'rsatilgan maqsadlarga muvofiq foydalanilishi mumkin. Ushbu Shartnomada hech qanday narsa Lizing oluvchiga Lizing obyektidan Lizing arizasida ko'rsatilmagan boshqa maqsadlarda foydalanish huquqini berish, Lizing obyektidan yuqorida ko'rsatilmagan istalgan maqsadlar uchun foydalanadigan har qanday ishonchli shaxs yoki litsenziat tomonidan Lizing obyektidan foydalanish uchun ruxsatnoma(litsenziya) berish yoki topshirish kabi talqin qilinmaydi.

8.3. Lizing muddati davomida Lizing oluvchi Lizing obyektini ehtiyot qilishga va uni o'z maqsadiga muvofiq ishlatishni, ishlab chiqaruvchining talab va takliflariga muvofiq saqlashga, Lizing obyektining xavfsizligini ta'minlash uchun barcha zarur chora-tadbirlarni ko'radi (odatiy amortizatsiyani hisobga olgan holda). Lizing oluvchi Lizing obyektidan foydalanish va unga egalik qilish uchun zarur bo'lgan barcha tegishli litsenziyalarni, guvohnoma va ruxsatnomalarni olishi va Lizing obyektidan foydalanish va unga joriy xizmat ko'rsatish bo'yicha tegishli qonunchilik talablarini bajarishi kerak.

8.4. Lizing oluvchi Lizing obyektini uchinchi tomonlarning da'volaridan himoya qilishi, shu jumladan bankrotlik va tugatish jarayonlaridan, Lizing obyektini bankrotlikka (uchragan tashkilotning sotilayotgan mulki ro'yxatiga kiritilmasligi va musodara qilinmasligi uchun zarur choralarni ko'rishi, Lizing obyektini baxtsiz hodisalar, yong'inlar, zarar, o'g'irlik va shunga o'xshash xatarlardan himoya qilishi, shuningdek Lizing obyektini xavfsizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan boshqa choralarni ko'rishi kerak.

## **9-bob. FOYDALANISH BO'YICHA ChEKLOVLAR**

9.1. Lizing oluvchi Lizing obyektining hech qanday noqonuniy maqsadlarda ishlatilishiga yo'l qo'ymasligi kerak.

## **10-bob. MA'LUMOT VA HISOBOT TOPSHIRISH**

10.1. Lizing oluvchining Moliyaviy lizing arizasi (so'rovi), yozma bayonnomalari, moliyaviy hisobot va ma'lumotlari Lizing beruvchining ushbu Lizing shartnomasiga kirishish to'g'risidagi qarorining asosi ekanini tasdiqlaydi va taqdim qilingan ma'lumotlarning buzilishi oqibatida Lizing beruvchi material xarakterdagi zarar ko'rsa mantiqan bu ushbu Shartnomaning buzilishi sifatida qabul qilinadi. Lizing oluvchi taqdim etilayotgan barcha moliyaviy ma'lumotlarning ishonchli va

to'g'ri ekanligini tasdiqlaydi, shuningdek Lizing beruvchiga o'zining moliyaviy to'lov qobiliyatini nazorat qilish huquqini beradi. Lizing oluvchi, Lizing beruvchiga o'z moliyaviy ahvoriga oid ma'lumotlarni tahlil qilish uchun quyidagi shartlarda ijobiy natija berishni o'z zimmasiga oladi.

10.2. Ushbu shartnomaning amal qilish muddatida Lizing oluvchi Lizing beruvchi talabiga binoan quyidagi xujjatlarni taqdim qilishni o'z zimmasiga oladi.

10.2.1. Chorak oraliq buxgalteriya (moliyaviy) hisobotlari – tegishli chorak tugaganidan keyin 4 haftadan kechiktirmay.

10.2.2. Yillik auditor tekshiruv hisoboti, agar o'tkazilgan bo'lsa, shu jumladan buxgalteriya hisoboti – moliyaviy yil tugaganidan keyin 120 kundan kechiktirmay.

10.2.3. Barcha material xarakterdagi o'zgarishlar haqida ma'lumot.

10.3. Lizing beruvchining talabiga binoan, Lizing oluvchi Lizing beruvchining manfaatlarini himoya qilish maqsadida Lizing obyektidan foydalanishni ro'yhatga olish yoki uni monitoring qilish maqsadlari uchun zarur deb hisoblagan boshqa hujjatlarni taqdim etishi shart. Lizing beruvchining yozma arizasi olingan kundan boshlab 5 (besh) bank ish kuni mobaynida bunday hujjatlar Lizing oluvchi tomonidan taqdim qilinishi kerak.

## **11-bob. LIZING OBYEKTINING SAQLANISHI VA TA'MIRLANISHI**

11.1. Lizing oluvchi o'z mablag'lari hisobiga Lizing obyektini muntazam ravishda, odatiy ish sharoitida saqlab turishni o'z zimmasiga oladi, shu munosabat bilan Lizing oluvchi Lizing obyektidan foydalanishni tartibga soluvchi texnik shartlari, standartlari, qoidalari va ko'rsatmalariga muvofiq zarur bo'lgan sarf materiallarini, ehtiyot qismlarini, tarkibiy qismlarini, mexanizmlarini va uskunalarini mustaqil ravishda sotib olishlari shart. Asosiy harakatlantiruvchi qismlar ta'miri bundan mustasno.

11.2. Lizing oluvchi, o'z ixtiyoriga binoan, Lizing obyektini takomillashtirishi va o'z maqsadlari uchun zarur deb hisoblaydigan tarkibiy bo'lmagan o'zgartirishlarni amalga oshirish huquqiga ega. Shu bilan birga, bunday o'zgartirishlar tarkibiy (konstruktiv) yaxlitlikni buzmasligi yoki Lizing obyektining narx qiymatini pasaytirmasligi kerak. Lizing oluvchi Lizing beruvchining oldindan yozma roziligini olgan holda Lizing obyektiga tarkibiy o'zgartirish kiritishga haqlidir. Shu bilan birga, Lizing beruvchi yuqorida ko'rsatilgan o'zgartirishlarni sababsiz qabul qilishdan bosh tortmaslikka roziligini bildiradi. Agar tuzilmaviy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun Davlat organi tomonidan ruhsatnoma yoki litsenziya talab etilsa, Lizing beruvchi Davlat organi talablariga javob beradigan shakl va ko'rinishda tarkibiy o'zgartirishlarni amalga oshirish uchun o'z roziligini ro'yhatga olishi va taqdim etishi shart; Lizing oluvchi mazkur ruxsatnomalar/litsenziyalarni olish uchun xarajatlarni mustaqil ravishda to'laydi va/yoki Lizing beruvchining bunday xarajatlarini to'liq qoplaydi.

11.3. Lizing oluvchi o'z mablag'lari evaziga Lizing obyektini joriy ta'mirlash, unga hizmat ko'rsatish, modifikatsiya qilish va takomillashtirish uchun barcha zarur ruxsatnomalarni kerak bo'lganda olishni o'z zimmasiga oladi. Lizing oluvchi, ushbu moddaning qoidalariga muvofiq ta'mirlash kerakligi to'g'risida yozma ravishda Lizing beruvchiga xabar berishga va zudlik bilan bu ishlar tugatilgunga qadar harakat qilishga majburdir.

11.4. Lizing oluvchi Lizing obyektiga nisbatan ishlar va materiallar qiymati bo'yicha qarzdorlik qolmasligi uchun Lizing obyektining joriy xizmat ko'rsatish bo'yicha ishlarni bajarish uchun to'lovni kechiktirmaslik majburiyatini oladi. Lizing oluvchi, shuningdek, Lizing beruvchiga Lizing obyektiga nisbatan o'zining ishlarini bajarish natijasida kelib chiqadigan uchinchi shaxslarning da'vo va/yoki da'volariga to'lovlarni to'lab berish majburiyatini oladi. Lizing oluvchi, shuningdek, O'zDSTga muvofiq sifatli materiallardan foydalanishga, shuningdek, joriy xizmat doirasida ishlarni bajarishda tegishli sifatga egalikni ta'minlashga majbur.

11.5. Lizing oluvchi Lizing obyektini kapital ta'mirlashni amalga oshirish zarurligi to'g'risida Lizing beruvchiga xabar berishi kerak. Lizing beruvchi Lizing obyektini kapital ta'mirlash bo'yicha majburiyatlarini uchinchi shaxslarga, shu jumladan Lizing oluvchining o'ziga alohida Agentlik Shartnomasi asosida tayinlashiga rozi ekanligini bildiradi.

## **12-bob. KAFOLAT**

12.1. Lizing oluvchi ushbu bilan, Lizing obyektidan foydalanishni boshlab va uni o'z faoliyatiga muvofiqligini tekshirib olgandandan so'ng Lizing oluvchi Lizing beruvchiga nisbatan Lizing obyektining muvofiqligiga, Lizing oluvchining faoliyati, uning dizayni, shuningdek, unumdorligi va sifatiga tegishli shikoyat qilish huquqiga ega emas.

## **13-bob. ZARAR VA ZIYON**

13.1. Lizing obyektining Lizing oluvchi tomonidan noto'g'ri ishlatilishi sababi bilan yoki uning beparvoligi yoki noto'g'ri hatti-xarakati sababli qisman yo'qotilganda, Lizing oluvchi o'z mablag'lari hisobidan Lizing obyektini darhol qayta tiklashga va ushbu Shartnoma bo'yicha Lizing to'lovlarini o'z vaqtida to'lashni davom ettirishga majburdir.

13.2. Lizing obyektini biron-bir sabab tufayli yo'qotilsa yoki unga shikast yetkazilsa, Lizing oluvchi Lizing beruvchiga yozma ravishda darhol bu haqida xabar berishi shart.

13.3. Lizing obyektining to'liq nobud bo'lishi holati Lizing oluvchining aybdor harakatlari tufayli yuzaga kelgan bo'lsa, Lizing oluvchi Lizing beruvchiga unga sug'urta qoplamasi bilan qoplanmagan Lizing beruvchi tomonidan ko'rilgan haqiqiy zarar miqdorini, shu jumladan Lizing obyektining narxini qoplab berishga majbur.

## **14-bob. LIZING OLUVCHINING VA'DALARI VA KAFOLATLARI**

14.1. Lizing oluvchi quyidagilarga va'da beradi va rozi bo'ladi:

14.1.1. Tadbirkorlik faoliyatini yuritish uchun va Lizing obyektidan foydalanish uchun kerak bo'lgan barcha o'rnatilgan tartibdagi ruxsatnomalarni, guvohnomalarni va litsenziyalarni o'z vaqtida olib boradi va muddatini uzaytiradi;

14.1.2. Lizing oluvchi Lizing beruvchi va uning vakillariga Lizing obyektini odatiy vaqtlarda tekshirishga ruxsat beradi va unga yuqorida ko'rsatilgan tekshiruvni o'tqazish maqsadida Lizing obyektiga joriy xizmat ko'rsatish va ta'mirlash bo'yicha barcha litsenziyalarni, ruxsatnomalarni, xujjatlarni va moliyaviy ma'lumotlarni taqdim etadi.

14.1.3. Lizing oluvchi Lizing beruvchiga monitoringni amalga oshirish maqsadida, shuningdek, har qanday takomillashtirish, o'zgartirish, tuzatishlarni tekshirishi uchun, shuningdek, Lizing oluvchining monitoringi uchun zarur bo'lishi mumkin bo'lgan moliyaviy va boshqa hujjatlarni olish imkoniyatini beradi.

14.1.4. Atrof muhitni muhofaza qilish, sanitar normalar va xavfsizlik qoidalariga tegishli bo'lgan barcha qonunchilikka rioya qiladi.

## **15-bob. LIZING VA BOSHQA TO'LOVLAR**

15.1. Ushbu Shartnoma kuchga kirgan sanadan boshlab 10 (o'n) bank ish kuni ichida Lizing oluvchi quyidagi to'lovni amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi:

15.2. Lizing obyektini Lizing oluvchining aybisiz ishdan chiqsa lizing to'lovlari to'xtatib turiladi. Lizing oluvchi To'lovlar jadvalida nazarda tutilgan tartibda va muddatlarda 2-ilovaga asosan amalga oshirib boradi.

15.3. Lizing oluvchi ushbu Shartnomaning 2-Ilovasida (to'lovlar jadvalida) nazarda tutilgan miqdorda va muddatlarda Lizing to'lovlarini amalga oshirishni o'z zimmasiga oladi. Lizing to'lovlarini to'lashni kechiktirishga faqat Lizing beruvchining yozma roziligi bilan yo'l qo'yiladi. Lizingga oluvchi tomonidan Lizing to'lovlarini to'lash jadvali bo'yicha to'lovlar kechiktirilgan taqdirda (№2 ilova), Lizingga oluvchi Lizingga beruvchiga to'lov to'liq to'lanmaguncha bo'lgan kechiktirilgan har bir kalendar kuni uchun lizingga oluvchining talabiga ko'ra qarzdorlikning 0,1% miqdorida, lekin to'lanmagan summaning 50 foizidan ko'p bo'lmagan miqdordagi penya to'lash majburiyatini oladi. Bunda undirilgan penya puli Lizingga beruvchi tomonidan faqatgina xayriya ishlariga sarf etiladi.

15.4. Ushbu Shartnoma bo'yicha qarzidorlik \_\_\_\_\_ (valyuta shakli) hisoblanishi Tomonlarga ma'lum va rozilik bildiradi.

15.5. Lizing obyekti Lizing oluvchiga topshirilgandan keyin, Lizing oluvchi, ushbu Shartnomaning 21-moddasida ko'rsatilgan holatlardan tashqari, Lizing to'lovlarini to'lashdan bosh tortishga haqli emas.

15.6. Barcha to'lovlar Lizing oluvchi tomonidan Lizing beruvchining ushbu Shartnomada ko'rsatilgan hisob raqamiga hech qanday ushlab qolishlarsiz va qarama-qarshi da'volarni hisobga olmasdan amalga oshiriladi.

15.7. Qaysidir Lizing to'lovi o'rnatilgan To'lov kunida amalga oshirilmasa, bunday to'lov kechiktirilgan deb hisoblanadi.

## **16-bob. LIZING OBYEKTIDAN FOYDALANISH HUQUQINI VA LIZING OBYEKTINING BOSHQA SHAXSLARGA TOPSHIRISH**

16.1. Lizing beruvchining oldindan yozma rozilgisiz Lizing oluvchi quyidagilarga haqli emas: (a) Lizing obyekti yoki uning bir qismini berib yubormoq, o'tkazib yubormoq, garovga qo'yib yubormoq yoki boshqa tarzda tasarruf etmoq yoki egalik qilmoq, yoki (b) Lizing obyekti lizingga berib yubormoq, hamda Lizing obyektidan foydalanish huquqini Lizing oluvchidan tashqari boshqa shaxslarga berib yuborish;

16.2. Lizing beruvchi Lizing oluvchini xabardor qilgan holda Lizing shartnomasi bo'yicha o'z huquqlarini to'liq yoki qisman uchinchi shaxslarga topshirishi mumkin. Lizing beruvchining Lizing obyektiga bo'lgan huquqlari uchinchi shaxsga o'tgan holda ushbu Shartnoma bo'yicha Lizing obyektiga bo'lgan huquqlar ham yangi mulk egasiga o'tadi.

## **17-bob. JAVOBGARLIK**

### **17.1. Lizing beruvchining javobgarligi:**

17.1.1. Lizing oluvchining Lizing obyekti yetkazib berilishi, sifati va to'liqligi bo'yicha barcha da'vo va e'tirozlari to'g'ridan-to'g'ri Lizing beruvchiga yuboriladi.

### **18.2. Lizing oluvchining javobgarligi:**

18.2.1. Ushbu Shartnoma shartlari buzilgan hollarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan choralar amalga oshiriladi.

18.2.2. Agar Lizing oluvchi ushbu Shartnomaning u uchun majburiy bo'lgan qaysidir bandlarini bajarmasa, Lizing beruvchi o'z hohishiga binoan quyidagi choralardan birini yoki bir nechtasini ko'rishi mumkin:

A) Ushbu Shartnomani amalga oshirishni bir tomonlama rad etishi.

V) Lizing oluvchiga tegishli yozma bildirishnoma yuborgan holda, bir tomonlama ushbu Shartnomani amalga oshirishni rad etishi va sudsiz Lizing obyekti qaytarilishini talab qilishi.

G) Amaldagi qonunchilikga asosan boshqa tegishli choralarni qo'llashi.

18.2.3. Lizing beruvchi tomonidan ushbu Shartnomaga yoki amaldagi qonun hujjatlariga asosan Lizing oluvchi majburiyatlarini bajarilmaganligi uchun yuqorida ko'rsatilgan javobgarlik choralarni yoki boshqa sanksiyalarni qo'llashi, Lizing oluvchi majburiyatlarini buzganligi tufayli Lizing beruvchi ko'rgan haqiqiy zarar va ziyonlarni, hamda ularni qoplash uchun ketgan barcha xarajat, bojlar va xizmat haqlarini qoplab berishdan ozod etmaydi.

18.2.4. Lizing oluvchi tomonidan to'langan va/yoki undan undirilgan, uning moliyaviy majburiyatlarini to'liq qoplashga yetmaydigan to'lov miqdori, uning qarzini quyidagi tartibda qoplaydi:

A) Lizing beruvchining Lizing oluvchi kechiktirgan yoki to'liq bajarmagan to'lov majburiyatlari miqdorlarini qaytarish bo'yicha harajatlari;

B) Lizing beruvchining haqiqiy ko'rgan zararlari;

V) Lizing to'lovi bo'yicha asosiy qarz miqdori.

## **19-bob. SHARTNOMANI BEKOR QILISH VA TO'XTATISH**

19.1. Ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlar quyidagi holatlarda bekor qilinadi:

19.1.1. Lizing oluvchi tomonidan ushbu Shartnoma bo'yicha barcha to'lovlar to'liq to'langanda va barcha majburiyatlarini bajargan taqdirda

19.2. Lizing oluvchi tomonidan Lizing shartnomasi bo'yicha jiddiy qoidabuzarliklar bo'lgan taqdirda, Lizing beruvchi Lizing obyektining haqiqiy zararlarini qoplash bilan birga Shartnomani bekor qilishni talab qilishga haqli.

19.3. Quyidagi hodisalarning har biri muhim ahamiyatga molik qoidabuzarlik va majburiyatlarni bajarmaslik deb hisoblanadi:

19.3.1. Lizing oluvchi xo'jalik faoliyatining tugatilishi, uning o'z faoliyatini davom ettira olmasligi, Lizing oluvchining huquq va majburiyatlari merosxo'rlarga o'tmasligi;

19.3.2. Lizing oluvchiga nisbatan bankrotlik yoki litsenziyani tugatish ishlarini boshlanishi;

19.3.3 Lizing oluvchining kreditorlar bilan kelishuv Shartnomasini tuzishi, Lizing oluvchining bankrot, to'lovlarni amalga oshirolmaydi deb e'tirof etilishi, yoki uning aktivlari to'liq yoki bir qismini uchinchi shaxslarga o'tishi;

19.3.4. Lizing oluvchi tomonidan To'lov jadvaliga zid holda har qanday 2 (ikki) Lizing to'lovlarini to'lamasligi;

19.3.5. Lizing oluvchi tomonidan Lizing obyektini uning arizasida ko'rsatilgandan tashqari boshqa maqsadlarda ishlatilishi, Lizing obyektining shikastlanishi yoki yo'qotilishi, yoki Lizing oluvchi tomonidan Lizing obyektiga tegishli bo'lgan huquqlarining berib yuborilishi, yoki uni Lizing beruvchining oldindan yozma ruhsatini olmagan holda boshqa shaxslarga lizingga berish va unga boshqa majburiyatlar yuklatilib qo'yilishi;

19.3.6. Ushbu Shartnomaning 14-moddasiga binoan, Lizing oluvchi tomonidan taqdim etilgan xar qanday va'dalar va kafolatlarning buzilganligi;

19.3.7. Material xarakterdagi o'zgarishlarning yuzaga kelganligi;

19.3.8. Amaldagi qonunchilikga ko'ra Lizing beruvchi tomonidan ushbu Shartnomani bekor qilish uchun asos bo'la oladigan boshqa holatlar.

## **20-bob. Lizing obyektini saqlash, joriy va kapital ta'mirlash tartibi**

20.1. Lizing oluvchi lizing muddati davomida lizing obyektini texnik jihatdan soz, but va ishga yaroqli holatda saqlash, undan to'g'ri foydalanish, joriy ta'mirlarni o'z vaqtida amalga oshirishi, shuningdek sotuvchidan but olib kelishi, uning kafolat hujjatlarini qabul qilib olishi va saqlashi shart.

20.2. Lizing oluvchi lizingning obyektini ekspluatatsiyaga topshirilgandan so'ng kafolat shartlariga rioya etilishini nazorat qiladi va kapital ta'mirlash ehtiyoji tug'ilganda sotuvchi hisobidan qoplash choralari ko'rishni lozim.

20.3. Lizing oluvchining aybi bilan (noto'g'ri foydalanish, zavod yo'riqnomasiga amal qilmaslik yoki hujjatlarni yo'qotish natijasida) zavod kafolati bekor qilingan taqdirda, Lizing obyektini joriy yoki kapital ta'mirlash bilan bog'liq barcha xarajatlar to'liq hajmda Lizing oluvchi tomonidan qoplanadi.

20.4. Lizing obyektining texnik qo'llanmasiga muvofiq, lizing davri ichida majburiy tartibda o'tkazilishi ko'rsatilgan rejaaviy kapital ta'mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan qoplanadi. Ushbu qilingan kapital xarajatlar miqdoridan kelib chiqib, keying i jara to'lovlari Lizing oluvchining roziligi bilan keyingi davrlar uchun to'lanadigan lizing to'lovlari summasiga mutanosib ravishda oshiriladi.

20.5. Kafolat muddati tugaganidan so'ng kapital ta'mirlash uchun ehtiyoj mavjud bo'lsa, lizing oluvchi takofuul sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta kompaniyasiga murojaat qiladi.

20.6. Lizing predmetida kapital ta'mirlashni talab etuvchi nosozliklar yuzaga kelganda va bu holat sug'urta (takaful) kompaniyasi tomonidan sug'urta hodisasi deb tan olinmagan taqdirda, mazkur ta'mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan qoplanadi. Buning uchun Lizing oluvchi texnik qo'llanma asosida obyektни ekspluatatsiya qoidalariga amal qilganligini asoslantirishi lozim.

20.7. Quyidagi holatlar Lizing oluvchi tomonidan Lizing obyektidan foydalanish va uni saqlash qoidalarini jiddiy ravishda buzish deb hisoblanadi. Mazkur holatlar oqibatida yuzaga kelgan har qanday kapital ta'mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan qoplanmaydi va to'liq Lizing oluvchining mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi:

Lizing obyektini ishlab chiqaruvchining zavod yo'riqnomasi talablariga zid ravishda, belgilangan texnik quvvat yoki yuk me'yorida ortiqcha (peregruzka bilan) ishlatish;

Belgilangan texnik reglamentga rioya etmaslik, shu jumladan motor va transmissiya moylarini, texnik suyuqliklarni hamda filtrlarni o'z vaqtida almashtirmaslik oqibatida dvigatel yoki boshqa asosiy tizimlarning ishdan chiqishiga yo'l qo'yish;

Lizing obyektini boshqarish uchun tegishli ruxsatnomasi, haydovchilik guvohnomasi yoki zaruriy malakasi bo'lmagan shaxslarga topshirish va buning natijasida obyektga shikast yetkazilishi;

Lizing oluvchi, uning ishonchli vakillari yoki xodimlari tomonidan Lizing obyektiga hamda uning butlovchi qismlariga qasddan zarar yetkazilishi;

Lizing obyektini boshqarayotgan shaxsning alkogol, giyohvandlik yoki toxic moddalar ta'sirida (mastlik holatida) bo'lishi oqibatida yo'l-transport hodisasi yoki boshqa turdagi avariya sodir etilishi;

Ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish jarayonida zavod-ishlab chiqaruvchi tomonidan tavsiya etilmagan, sifatsiz yoki soxta ehtiyot qismlar hamda moylash materiallarini ishlatish natijasida tizim va agregatlarning buzilishi;

Lizing beruvchining va ishlab chiqaruvchining oldindan berilgan yozma rozilgisiz texnikaga qo'shimcha qurilmalar o'rnatish yoki uning konstruktiv tuzilishini o'zboshimchalik bilan o'zgartirish (modifikatsiya qilish);

Lizing obyektida dastlabki nosozlik yoki xavf belgilari (nazorat panellarida xatolik chiroqlari yonishi, g'ayritabiiy shovqin/ovozlar kelishi, tutun chiqishi va boshqalar) paydo bo'lgan taqdirda ham ishlashni (harakatlanishni) to'xtatmasdan, zararning kattalashishiga sabab bo'lish;

Shartnoma yoki texnik qo'llanma shartlarini buzgan holda Lizing obyektini ochiq havoda, o'ta nam, o'ta issiq yoki o'ta sovuq muhitda tegishli muhofazalash va konservatsiya choralarini ko'rmasdan, himoyasiz qoldirish;

Lizing obyektining texnik imkoniyatlari va pasport ko'rsatkichlaridan tashqari bo'lgan o'ta og'ir tabiiy hamda iqlim sharoitlarida (chuqur suv havzalari, botqoqliklar, suriluvchi tuproqlar va b.) zaruriy xavfsizlik choralarisiz foydalanish;

Ishlab chiqaruvchining texnik yo'riqnomasida belgilangan isitish va sovitish qoidalariga amal qilmaslik, shu jumladan, ishni boshlashdan oldin dvigatelni yetarlicha isitmaslik yoki o'ta qizib ketgan (peregrev holatidagi) tizimni sovitmasdan ekspluatatsiya qilishni davom ettirish. 7.9. Joriy ta'mir xarajatlari aktivdan foydalanish jarayonida yuzaga kelsa, lizing oluvchi tomonidan mustaqil ravishda va o'z mablag'lari hisobidan qoplanadi.

20.8. Kapital ta'mir xarajatlari yuqoridagi bandlar bo'yicha lizing oluvchiga bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra lizing obyekti kapital ta'mirlashga muhtoj bo'lganda ushbu kapital ta'mirlash xarajatlari lizing beruvchi tomonidan amalga oshiriladi.

20.9. Lizing obyekti lizing oluvchi tomonidan noto'g'ri ekspluatatsiya qilish natijasida kapital ta'mirlashga muhtoj bo'lgan taqdirda ushbu xarajatlar lizing oluvchi tomonidan amalga oshirishi lozim.

20.10. Kapital ta'mirlash xarajatlarning miqdori Lizing oluvchi taqdim etgan asoslantiruvchi hujjatlar (*texnik diagnostika xulosasi, ta'mirlash smetasi, foto/video dalillar yoki vakolatli organ hujjatlari*) asosida Lizing beruvchi tomonidan ko'rib chiqiladi. Lizing beruvchi zaruratga ko'ra ushbu nosozlikni tekshirish uchun mustaqil ekspert yoki baholovchini jalb etish huquqiga ega.

20.11. Tasdiqlangan kapital ta'mirlash xarajatlari Lizing beruvchi tomonidan bevosita pudratchiga beriladi yoki Lizing beruvchining oldindan berilgan yozma roziligi bilan Lizing oluvchi tomonidan to'lanib, keyinchalik Lizing beruvchi tomonidan qoplab berilishi mumkin.

## **21-bob. LIZING OBYEKTINI QAYTARISH**

21.1. Lizing oluvchi ushbu Shartnomaning 19.1-bandi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaslik holati yuzaga kelgan taqdirda Lizing beruvchi Lizing obyekti qaytarilishini talab qilishga haqli. Lizing obyekti demontaj qilish, tashish, yuklash, tegishli Davlat organida qayta ro'yxatdan o'tkazish va boshqa xarajatlar Lizing oluvchi tomonidan qoplanadi. Agar Lizing obyekti ushbu moddaga muvofiq qaytarilgan bo'lsa, Lizing oluvchi ushbu Shartnomaga muvofiq ko'rilgan xarajatlarni qaytarishni talab qilishga haqli emas.

21.2. Lizing beruvchi Lizing obyekti qabul qilib olishdan va qaytarishdan oldin uni ko'zdan kechirish huquqiga ega. Lizing obyekti qabul qilib olish jarayonida lizing oluvchining beparvoligi yoki noto'g'ri xatti harakati oqibatida har qanday kamchilik, shikastlanish, yoki boshqa holati yomonlashgani (odatiy amortizatsiya hisobga olinganda) aniqlansa, Lizing beruvchi Lizing oluvchidan ularni bartaraf qilishni yoki bartaraf qilishga ketadigan mablag'ni qoplashini talab qilish huquqiga ega.

## **22-bob. FORS-MAJOR**

Lizing beruvchi yoki Lizing oluvchi, ish tashlashlar, material tanqisligi, energiya ta'minotidagi uzilishlar, cheklov tusidagi qonunlar yoki aktlarning qabul qilinishi, ommaviy tartibsizliklar, tajovuzkorlik, harbiy harakatlar, pandemiya, epidemiya yoki nazorat qilib bo'lmaydigan boshqa sabablar tufayli ushbu Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajara olmasa, ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishi javobgarlik chora-tadbirlarini qo'llamagan holda yuqorida ko'rsatilgan holatlarning ta'sir qilish muddati davomida kechiktirilishi mumkin. Ushbu holatlar vakolatli davlat tashkilotlari tomonidan beriladigan xujjatlar asosida tasdiqlanishi shart. Biroq, yuqorida keltirilganlarga qaramasdan, zarur mablag'larning yetishmasligi Tomonlar nazorat qila olmaydigan vaziyat sifatida qaralmasligi kerak.

## 23-bob. ALOHIDA BANDLARNING LAYOQATSIZLIGI

Agar ushbu Shartnomaning biron-bir shartlari yoki bandlari yoki ularning ijrosi biron-bir shaxsga yoki holatga nisbatan qo'llanilishi bekor bo'lgan yoki bajarilmaydigan deb e'tirof etilsa, ushbu Shartnoma va amaldagi qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladigan ushbu Shartnomaning qolgan qismlarining haqiqiylikiga va ijro etilishiga ta'sir ko'rsatmasligi kerak.

## 24-bob. AMALDAGI QONUNCHILIK VA ARBITRAJ

24.1. Barcha ushbu Shartnomaga tegishli bo'lgan savollar (shu jumladan, uning talqini, qo'llanilishi, amal qilish muddati, ijrosi va buzilishi) qaysi Davlat hududida bo'lishiga qaramay O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan ko'rib chiqiladi,

24.2. Tomonlar kelishuviga asosan ushbu Shartnoma bo'yicha barcha kelib chiqqan munozaralar Toshkent tumanlararo iqtisodiy sudida ko'rib chiqiladi.

24.3. Tomonlar, ushbu Shartnoma bo'yicha munozara va kelishmovchiliklar sudga oshirilgan taqdirda, talablari qondirilgan Tomon, uning da'vosiga binoan to'lanadigan pul miqdoridan tashqari, advokat uchun, sud va boshqa xarajatlarga sarflangan pul miqdorlarini qoplab berilishini talab qilish huquqiga egaligiga rozi bo'ldilar.

24.4. Tomonlarning kelishuviga ko'ra ushbu Shartnomada tartibga solinmagan barcha masalalar bo'yicha amaldagi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligini qo'llaniladi. Ushbu Shartnoma shartlari buzilgan hollarda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida ko'zda tutilgan choralar amalga oshiriladi.

## 25-bob. YAKUNIY BANDLAR

25.1. Ushbu Shartnomaga kiritilayotgan barcha o'zgartirishlar hamma Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan mos ravishda yozma shaklda amalga oshirilib, imzolangan bo'lishi kerak.

25.2. Tomonlar Lizing beruvchining yoki Lizing oluvchining faoliyatiga tegishli bo'lgan barcha ma'lumot va materiallarni maxfiy tarzda saqlashlari kerak, hamda Lizing beruvchi yoki Lizing oluvchi tomonidan maxfiy deb belgilanganlarni. Lizing beruvchi va Lizing oluvchi ushbu bilan ushbu ma'lumotlarni boshqa tomonning oldindan yozma ruxsatisiz barcha uchinchi shaxslarga ochiqalmasliklarini tasdiqlaydilar. Shuningdek, Lizing oluvchi Lizing beruvchining oldindan yozma ruxsatisiz bevosita yoki bilvosita Sotuvchidan olingan barcha ma'lumot va hujjatlarni hech qaysi boshqa tomonlarga ochiqalmaslikni hamda uni chop etmaslikni o'z zimmasiga oladi.

25.3. **Garov reestri** Lizing oluvchi Lizing beruvchi tomonidan Lizing obyekti va garov obyektlari bo'yicha ma'lumotlarni Garov reestriga kiritishiga rozilik beradi.

25.4. Shartnoma 2 (ikki) nusxada tuzilgan bo'lib va barcha uning ilovalari bilan Shartnoma mazmuni bo'yicha Tomonlarning kelishuvining to'liq matni hisoblanadi, va Tomonlar o'rtasidagi boshqa hech qaysi yozishmalar, kelishuvlar va hujjatlar yuridik kuchga ega emas.

25.5. Ushbu Shartnoma Tomonlar imzolagan sanadan kuchga kiradi va Tomonlar o'z majburiyatlarini to'liq bajargunga qadar amal qiladi.

Ushbu Shartnoma \_\_\_\_\_ tilida tuzilgan va imzolangan bo'lib, hamda zaruriyat bo'lsa, ro'yxatga olingan.

## 26-bob TOMONLARNING MANZILLARI, BANK MA'LUMOTLARI VA IMZOLARI. LIZING BERUVCHI:

|                           |                          |
|---------------------------|--------------------------|
| <b>Lizingga beruvchi:</b> | <b>Lizingga oluvchi:</b> |
| <b>"HAMKORBANK" ATB</b>   | <b>Korxona nomi</b>      |
| Yuridik manzil:           | Manzili:                 |
|                           | Pasport ma'lumotlari:    |
| Tel:                      | Telefon:                 |
| STIR:                     | STIR:                    |
| <b>(FISH)</b> _____       | <b>(FISH)</b> _____      |

20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_da tuzilgan  
yangi lizing shartnomasiga №1 ilova

Uskuna (dastgox)ning texnik xususiyatlari

Ishlab chiqarilgan joyi – .....

Ishlab chiqaruvchi – .....

Sotuvchi – .....

| Uskuna to‘lik nomi | Soni       | 1 donasi bahosi<br>(O‘zR so‘mi) | Umumiy qiymati<br>(O‘zR so‘mi) |
|--------------------|------------|---------------------------------|--------------------------------|
|                    | —<br>dona  |                                 |                                |
| JAMI               | —<br>dona. | — — —                           |                                |

**Lizingga beruvchi:**

**“HAMKORBANK” ATB**

Yuridik manzil:

Tel:

STIR:

**(FISH)** \_\_\_\_\_

(imzo)

**Lizingga oluvchi:**

**Korxona nomi**

Manzili:

Pasport ma’lumotlari:

Telefon:

STIR:

**(FISH)** \_\_\_\_\_

(imzo)

20\_\_\_\_ yil “ \_\_\_\_ ” \_\_\_\_\_ da tuzilgan  
Uskuna(dastgox)ning lizing  
shartnomasiga №2 ilova

Lizing to‘lovlari jadvali

| № | Tulov kuni                                                                                                                    | Muddati<br>o‘tadigan<br>kun | Asosiy<br>qarz to‘lov<br>summasi | Lizing haqi<br>(Daromadi) | Jami<br>lizing<br>to‘lovi | Sundirilgunga<br>cha lizing<br>qoldig‘i<br>summasi | Sundirilgan<br>dan keyingi<br>lizing<br>qoldig‘i<br>summasi |
|---|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------|----------------------------------|---------------------------|---------------------------|----------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------|
| 1 | Bo‘nak to‘lov summasi.<br><i>(Bo‘nak to‘lovi summasi lizing bo‘yicha birinchi<br/>to‘lov summasi sifatida qabul qilinadi)</i> |                             |                                  |                           |                           |                                                    |                                                             |
| 2 |                                                                                                                               |                             |                                  |                           |                           |                                                    |                                                             |
| 3 |                                                                                                                               |                             |                                  |                           |                           |                                                    |                                                             |
| 4 |                                                                                                                               |                             |                                  |                           |                           |                                                    |                                                             |
|   |                                                                                                                               |                             |                                  |                           |                           |                                                    |                                                             |
|   |                                                                                                                               |                             |                                  |                           |                           |                                                    |                                                             |
|   |                                                                                                                               |                             |                                  |                           |                           |                                                    |                                                             |
|   | Jami                                                                                                                          |                             | xxx                              | xxx                       | xxxx                      |                                                    |                                                             |

**Jami: Lizing to‘lovlari**

\_\_\_\_\_ **so‘m.**

20\_\_ yil “\_\_” \_\_\_\_\_da tuzilgan  
uskunaning lizing  
shartnomasiga №3- ilova

**Uskuna(dastgox)ni qabul qilish to‘g‘risidagi  
Dalolatnoma**

Toshkent sh.

20\_\_ y. \_\_\_\_

“**HAMKORBANK**” ATB, quyida “Lizingga beruvchi” deb nomlanuvchi, ustav asosida xarakatlanuvchi boshqaruv raisi **B.Jo‘rayev** siymosida bir tomondan va

\_\_\_\_\_ (STIR \_\_\_\_\_, pasport seriyasi \_\_\_\_\_  
№ \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_  
tomonidan \_\_\_\_\_ yilda \_\_\_\_\_ berilgan,  
\_\_\_\_\_da doimiy

ro‘yxatda turadi), quyida “**Lizingga oluvchi**” deb nomlanuvchi, ikkinchi tomondan,

birgalikda “Tomonlar” deb nomlanuvchilar, ushbu transport vositasini qabul qilish Dalolatnomasini quyidagilar to‘g‘risida tuzdilar:

Lizingga beruvchi 2022-yil \_\_\_\_ Tomonlar o‘rtasida tuzilgan Transport vositasini lizing shartnomasi asosida quyidagi uskunani Lizingga oluvchiga topshiradi, Lizingga oluvchi esa ushbu uskunani qabul qilib oladi.

| №     | Uskunalarining nomi | Soni |
|-------|---------------------|------|
| 1     |                     |      |
| ..... |                     |      |
|       | <b>Jami</b>         |      |

Biz, quyida imzo chekuvchilar lizingga topshirilayotgan uskunani ishchi holatda va barcha texnik talablarga javob berishini tasdiqlaymiz, Lizingga oluvchining uskunaning holati bo‘yicha xech qanday e‘tirozlari yo‘q.

**Lizingga beruvchi:**

**Lizingga oluvchi:**

“**HAMKORBANK**” ATB

**Korxona nomi**

Tel:

Telefon:

STIR:

STIR:

(FISH) \_\_\_\_\_

(FISH) \_\_\_\_\_

(imzo)

(imzo)

202\_\_ yil “ \_\_ ” \_\_\_\_\_ da tuzilgan  
Uskuna(dastgox)ning lizing  
shartnomasiga №4 ilova

**Bo‘nak to‘lovi jadvali**

| To‘lov nomi    | Miqdori, so‘m | Sana |
|----------------|---------------|------|
| Bo‘nak to‘lovi |               |      |
|                |               |      |

**JAMI:**

**Bo‘nak to‘lovi – \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so‘m.**

**Lizingga beruvchi:**

**“HAMKORBANK” ATB**

Yuridik manzil:

Tel:

STIR:

**(FISH)** \_\_\_\_\_  
(imzo)

**Lizingga oluvchi:**

**Korxona nomi**

Manzili:

Pasport ma’lumotlari:

Telefon:

STIR:

**(FISH)** \_\_\_\_\_  
(imzo)

## **Lizing obyektiga nisbatan mulk huquqining Lizing oluvchiga o'tishi shartlari**

1. Lizing muddati tugagandan so'ng va Lizing oluvchining Shartnomada nazarda tutilgan barcha majburiyatlari bajarilgandan so'ng, Lizing obyektiga tomonlar o'rtasidagi alohida va'dalashuv kelishuviga muvofiq Lizing oluvchining mulkiga berilishi mumkin.

Lizing oluvchi barcha lizing va boshqa to'lovlarni, shu jumladan Lizing beruvchining zararlari, ushbu Shartnoma bo'yicha Lizing oluvchi tomonidan o'z majburiyatlarini bajarmaganligi uchun belgilangan jarimalar to'liq to'langandan so'ng, Lizing obyektiga alohida va'dalashuv kelishuviga muvofiq Lizing oluvchining mulkiga o'tkazilishi mumkin. Mulk huquqini o'tkazish Lizing obyektini mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

2. Lizing obyektini mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan ikkita asl nusxada, Tomonlarning har biri uchun bitta nusxadan tuzilishi va imzolanishi mumkin.

3. Lizing obyektini mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasini imzolagandan so'ng, Tomonlar Lizing oluvchi joylashgan joydagi vakolatli organlarda Lizing obyektiga nisbatan mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur choralarni ko'rishlari shart. Bunda Lizing beruvchi tegishli organga Lizing obyektiga nisbatan mulk huquqining Lizing oluvchiga o'tganligini yozma tasdiqnomasini topshirishi shart.

4. Lizing obyektiga nisbatan mulk huquqi ushbu Shartnoma muddati tugashidan avval alohida kelishuv asosida quyidagi shartlarda Lizing oluvchiga o'tishi mumkin:

4.1. Lizingning o'tgan muddati 13 oydan ko'proq;

4.2. Lizing oluvchi quyidagilarni to'lovini amalga oshirgan:

- lizingning o'tgan muddati uchun jami lizing to'lovlarini (Shartnomaning 2-ilovasi);
- Lizing oluvchining ushbu Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi sababli paydo bo'lishi mumkin bo'lgan jarima va Lizing beruvchining zararlari miqdori;

4.3. Lizing oluvchi Lizing obyektiga nisbatan mulk huquqini muddatidan avval olish niyati to'g'risida Lizing beruvchiga Lizing obyektiga nisbatan mulk huquqini olish uchun rejalashtirilgan kundan kamida 10 kun oldin yozma ravishda xabar beradi. Agar Lizing oluvchi yuqoridagi shartlarni bajargan bo'lsa, Tomonlar ushbu Shartnoma bo'yicha o'zaro hisob-kitoblarni solishtirish to'g'risidagi Dalolatnomani tuzishlari mumkin va Lizing obyektini Lizing oluvchining mulki sifatida qabul qilish Dalolatnomasi imzolashlari mumkin.

**Lizingga berilgan uskunani topshirish bo'yicha dastlabki kelishuv (va'dalashuv) №**

\_\_\_\_\_ sh.

202\_\_ yil "..." .....

**"HAMKORBANK" aksiyadorlik tijorat banki**, quyida **"Lizingga beruvchi"** deb nomlanuvchi, ustav asosida xarakatlanuvchi \_\_\_\_\_ siymosida bir tomondan va "\_\_\_\_\_" **mas'uliyati cheklangan jamiyati**, quyida **"Lizingga oluvchi"** deb nomlanuvchi, ustav asosida xarakatlanuvchi direktor ..... siymosida ikkinchi tomondan birgalikda **"Tomonlar"** deb nomlanuvchilar, ushbu yangi lizingga berilgan uskunani topshirish va'dasini berish to'g'risidagi dastlabki kelishuvni (quyida **"Kelishuv"** deb nomlanuvchi) quyidagilar to'g'risida tuzdilar:

1. Lizingga beruvchi quyidagi uskuna bo'yicha Lizingga oluvchi bilan tuzilgan yangi lizing shartnomasi muddati tugagandan va barcha to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng, uskunani Lizingga oluvchining mulkiga o'tkazib berish va'dasini beradi.

| Uskunaning nomi | soni |
|-----------------|------|
|                 |      |
| Jami            |      |

2. Lizingga oluvchi ushbu uskunani Lizingga beruvchidan qabul qilib olishni rad etish xuquqiga ega.

3. Mulk huquqini o'tkazish uskunani mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.. Uskunani mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasi Tomonlarning vakolatli vakillari tomonidan ikkita asl nusxada, Tomonlarning har biri uchun bitta nusxadan tuziladi va imzolanadi.

4. Uskunani mulk sifatida qabul qilish Dalolatnomasini imzolagandan so'ng, Tomonlar Lizingga oluvchi joylashgan joydagi vakolatli organlarda Uskunaga nisbatan mulk huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun zarur choralarni ko'rishlari shart. Bunda Lizingga beruvchi tegishli organga Uskunaga nisbatan mulk huquqining Lizingga oluvchiga o'tganligini yozma tasdiqnomasini topshirishi shart.

5. Ushbu Kelishuv tomonlar imzolangan vaqtdan kuchga kiradi.

6. Ushbu Kelishuv ikkita teng kuchga ega bo'lgan nusxada, tomonlarning har biri uchun bitta nusxada tuzilgan.

**Tomonlar manzillari, bank hisob raqamlari ma'lumotlari va imzolari:**

**Lizingga beruvchi:**

**"HAMKORBANK" ATB**

Yuridik manzil: .....  
.....

\_\_\_\_\_  
(imzo)

M.P.

**Lizingga oluvchi:**

"\_\_\_\_\_"

**MCHJ**

Yuridik manzil: .....  
.....

.....  
(imzo)

M.P.